

**Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi Sobirova Mohira taqrizi ostida**

**Sabinabonu Muxaramova Zavqiddin qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

## **YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARIDAGI PEDAGOGIK QARASHLAR**

**Annontatsiya.** Tezisda Yusuf Xos Hojibning ta'limiyy va tarbiyaviy fikrlari, ilm ahllarini qadrlash kerakligi, oila qurish va bolani oilada tarbiyalash haqidagi pedagogika qarashari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilim, tarbiya, maqol, didaktika, fikr, odob, axloq, mehnat tarbiaysi, kasb, hunar, muloqot, rivojlanish.

**Kirish.** Qadimgi davrlardan boshlab bola shaxsini tarbiyalashga katta e'tibor berilgan. Bolalarga yoshligidan boshlab ta'lim berish bilan bir qatorda mehnat tarbiyasiga ham o'rgatilgan. Shu bilan birgalikda eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari—afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralardan ham bilsak bo'ladi. Undan tashqari ta'limiyy va tarbiyaviy ma'lumotlar allomalarining asarlarida ham bayon etilgan. Ularning pedagogik qarashlari nafaqat o'zları yashagan davr uchun, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

**Materiallar va uslublar.** Yusuf Xos Hojibning yashagan davri haqida ma'lumotlarlarni biz uning "Qutadg'u bilig" (Saodatga boshlovchi bilim) asaridan bilishimiz mumkin. Alloma bu asarni hijriy 462 (1069-1070) yillarda yozishni boshlagani va 18 oyda ya'nı 462-yilning o'talarida tugatgani haqida asarda takidlab o'tgan [1]. Alloma asarni 50 yoshlar atrofida tugatgani haqida yozib qoldirganidan kelib chiqib hijriy 410-yilda (milodiy 1019-yilda) tug'ilgan deb taxmin qilinadi. Asarning 3 nusxasi: Namangan, Qohira va Hirot nusxalari topilgan. "Qutadg'u bilig"ning hozirgi kundagi mukammal nashri Qayum Karimov tomonidan nashr etildi. Qayum Karimov bu asarni, "Badiiy adabiyotning tipik namunasidir. Didaktik ruhda yozilgan ta'lim-tarbiya, odob-axloq va hikmatbdarsligidir" deydi[2].

Asar to'rt qahramon— Kuntug'di-adolat ramzi; vazir Oyto'ldi-davlat va baxt ramri; vazirning o'gli O'gdulmush-aql ramzi; vazirning qarindoshi O'zg'urmish-qanoat timsoli o'rtaisdagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bo'glangan holda bayon etilgan. Ana shu to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'zining maqsad va g'oyalarini bayon etadi. Jumladan:

Oyto'ldining Elig bilan suhbatida—davlatning sifati va fazilatlari, uning bevafoligi va bebaholigi haqida bilishimiz mumkin.

O'zg'urmish va Elig suhbatida—saroy amaldorlarining vazifalari va boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishlari haqida bilishimiz mumkin.

O'gdulmish va O'zg'urmish munozaralarida—insoniy xislatlar, xizmat va turmush odoblari, turli kasb egalarining vasfi haqida bilishimiz mumkin.

Asarni boshlanmasida insonni yaratilishi va inson yaratilgandan keyin unga Alloh tomonidan bilim berilgani, bilimlari tufayli buyuklikka erishishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Bilimli kishilargina ezgu ish qilib,adolatli siyosat yurgizishi mumkin. Davlatni aql-zakovat egasi bo'lgan adolatli hukmdor boshqarsa aholi to'q va baxtli hayot kechiradi, deydi. Yusuf Xos Hojib olimlarni qadrlash kerakligini ta'kidlab, olimlarni qadrlasa, ilmsiz insonlarni esa johil insonlar deydi. Olimlarni xalqni yo'llini

yorituvchi chiroqqa o'xshatadi [3]. Bilim va zakovatni qadriga xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar yetadi. Bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh, kiyim va oziq sifatida ham ta'riflaydi. Inson qalbi tubsiz dengiz, ilm esa inju kabi uning tubida yotadi, inju qazib olinmasa insonga foydasi tegmagandek bilim ham inju kabi foydalanishni boshlagandan keyin insonni buyuklikka olib chiqadi degan fikrlar ham bayon etilgan. Alloma asarda komil insonga ham ta'rif berib o'tgan. "Qutadg'u bilig"ning tadqiq etgan olimlardan biri Boqijon To'xliyev takidlaganidek, Yusuf Xos Hojib "Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir" [4] .

**Natijalar va muhokama.** Asarda kasb egalari va bolalarga yoshlidan boshlab ma'lum bir kasb yoki hunarni o'rgatish kerakligi haqida ham alohida to'xtalib o'tilgan, chunki davlatning tinch-osoyishtaligi, jahondagi tutgan mavqeい, boyligi va xalqning farovonligi yoshlarga bog'liq edi. Zero kasb hunar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi hisoblanadi. Asarda olim barcha e兹gulikning boshi til deb qaraydi. Asarning bir bobi til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi. Til insonni qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ketishi mumkin. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z deydi. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabдорлардан tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Alloma oilaviy-maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishdan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Bolaga tarbiya berish davomida jismoniy tarbiyaga alohida etibor berish kerak deydi. Chunki insonning haqiqiy kamolatga yetishida aqliy va axloqiy tomon dangina emas, jismoniy tomon dan ham sog'lom bo'lishi kerakligiga katta e'tibor beradi.

**Xulosa** qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ta'limiy-tarbiyaviy asar sifatida didaktik asarlar tarixida yuqori o'rinnarda turadi. Asarda oila qurish tartiblari, oilaviy munosabatlar, oilada yuzaga keluvchi muammolar va ularga yechim topish yo'llari va oilada farzand tarbiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarni o'qish davomida ilmning ulug'ligi va o'z egasini ulug'likka olib borishini va ilm ahllarini qadrlash kerakligini bilib olish mumkin. Ilmlı yoki ma'lum bir kasb-hunar egasi o'z davlatining rivojiga hissa qo'shishi. Shu bilan birgalikda ilmsiz insonlar esa o'z davlatining rivojiga putr yetkazishi haqidagi qimmatli fikrlarni bayon etilgan. Allomaning bu fikrlari nafaqat o'z davri uchun balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. O'zbek tilida bayon qiluvchi To'xliyev B. Toshkent, "Yulduzcha", 1990, 5-bet.
2. Karimov Q. Ilk badiiy doston. Toshkent, "Fan", 1976, 22-bet.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. O'zbek tilida bayon qiluvchi To'xliyev B. Toshkent, "Yulduzcha", 1990, 649-651-betlar.
4. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asariga so'zboshi. Toshkent, "Yulduzcha", 1990, 6-bet.